



UDK: 93.94

**Mahmud HAMRAYEV,**  
Sharq universiteti dotsenti v.b., PhD  
E-mail:mahmudhamrayev18111991@gmail.com

Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti professori, DSc O.Rashidov taqrizi asosida

## THE FATE OF THE GOLDEN TREASURY OF THE EMIRATE OF BUKHARA

Annotation

This article analyzes, on the basis of historical sources and archival documents, the origins of the Emirate's gold reserves, the structure of the treasury, its economic and political significance, as well as the subsequent fate of the gold in the context of the events of 1920. It also examines, through a scholarly approach, the differences between the legends that emerged around the gold reserves and historical reality.

**Key words:** Treasury, gold, gold ingot, Amir Said Alim Khan, pud, arshin, emirate, Bukhara, red army.

## СУДЬБА ЗОЛОТОЙ КАЗНЫ БУХАРСКОГО ЭМИРАТА

Аннотация

В данной статье на основе исторических источников и архивных документов анализируются источники формирования золотых запасов эмирата, структура казны, её экономическое и политическое значение, а также дальнейшая судьба золота на фоне событий 1920 года. Кроме того, на основе научного подхода освещаются различия между легендами, сложившимися вокруг золотых резервов, и исторической реальностью.

**Ключевые слова:** Казна, золото, золотой слиток, Амир Сеид Алимхан, пуд, аршин, эмират, Бухара, красная армия.

## BUXORO AMIRLIGINING OLTIN XAZINASI TAQDIRI

Аннотация

Mazkur maqolada amirlik oltinlarining shakllanish manbalari, xazina tuzilmasi, uning iqtisodiy va siyosiy ahamiyati hamda 1920-yil voqealari fonida oltinlarning keyingi taqdiri tarixiy manbalar va arxiv hujjatlari asosida tahlil qilinadi. Shuningdek, oltin xazinalari atrofida shakllangan afsona va tarixiy haqiqat o'rtasidagi farqlar ilmiy yondashuv asosida yoritiladi.

**Kalit so'zlar:** Xazina, oltin, yombi, Amir Said Olimxon, pud, olchin, amirlik, Buxoro, qizil armiya.

19-yuz yillik oxiri – 20-yuz yillik boshlarida Buxoro amirligi Markaziy Osiyoning eng yirik davlatlaridan biri sifatida nafaqat siyosiy-harbiy, balki iqtisodiy salohiyati bilan ham uch davlat orasida ajralib turgan. Amirlik xazinasini, xususan, oltin xazinalari davlat moliyaviy barqarorligining muhim omili bo'lib, ichki boshqaruv tizimi, diplomatik aloqalar va harbiy islohotlarni moliyalashtirishda hal qiluvchi rol o'ynagan. Buxoro amirligining oltinlari masalasi esa tarixda ham, bugungi kunda ham tarixchilar, iqtisodchilar va tadqiqotchilar o'rtasida dolzarb mavzulardan biri bo'lib qolmoqda. Oltin nafaqat boylik va qudrat ramzi, balki davlat mustaqilligi va siyosiy barqarorligining moddiy asosi sifatida namoyon bo'lgan. Amir Said Olimxon davrida amirlik xazinasini tarkibi, uning saqlanishi va keyingi taqdiri alohida tarixiy ahamiyat kasb etadi. Ayniqsa, 1920-yilda qizil Armiya tomonidan Buxoroning egallanishi jarayonida xazinaning bir qismi musodara qilingani, bir qismi esa olib chiqib ketilgani haqidagi ma'lumotlar turli manbalarda turlicha talqin etiladi. Avvalo, Buxoro amirligining oltin zahirasi qachondan va qay shaklda to'planganligi haqida fikr yuritsak. Buxoroning afsonaviy oltin xazinasining tarixi Muhammad Rahim davridan boshlangan. Bundan tashqari mang'itlarning ashtarxoniylardan qolgan xazinaga egalik qilganligi xususida ham ba'zi xato ma'lumotlar bor[1].

Chunki ashtarxoniylar sulolasining so'nggi vakili Abulfayzxon Eron shohi bilan imzolagan sulh kelishuviga ko'ra Buxoro xonligining asosiy xazinasini o'lpon sifatida Nodirshohga topshirgan edi[2].

Demakki, amirlik xazinasini XVIII-XIX asrlardan boshlab to'plana borgan. Qariyb ikki asr davomida Buxoro davlatining xazinasini uzluksiz to'ldirilib, maxfiy saqlanib kelindi va XX asr boshlarigacha daxlsiz bo'lib qoldi. Bu

xazina xalqdan olinadigan turli soliqlar, savdo-sotiqdan tushgan daromadlar, maxfiy saqlanadigan oltin konlari va o'zga mamlakatlardan yuborilgan in'omlar orqali ham to'lib bordi. Xazina va uning miqdori saroy ayonlari-yu amirlarning oila a'zolaridan ham sir tutilgan. Hattoki undan voqif bo'lganlarning turli yo'llar bilan qatl etilganligi xususida ham rivoyatlar mavjud. Amirlikda xazina ishlari uchun mas'ul shaxs xazinachi nomi bilan atalgan. Abdurauf Fitratning yozishicha: "Bu mansabga ega bo'lgan kishining vazifasi aniq bo'lib, amir xazinasining muhofizi hisoblanar edi. Hukumatning mol-mulk ombori uning qaramog'idadir. Uning ixtiyorida 40 dan ortiq kishi xizmatda bo'lar edi. Mamlakat kirimi va chiqimini daftarga qayd etish, ombordan kerakli narsalarni olish va unga qo'yish – barcha-barchasi xazinachi orqali amalga oshirilgan. Rasman xazinaga mamlakatning mulkiy, harbiy va siyosiy ishlarining dahlil yo'q edi. Olimxon davrida uning xazinachisi Jallodbek laqabi bilan mashhur Imomqul degan shaxs bo'lgan"[3].

Yuqoridagi fikrdan ko'rinib turibdiki, xazinadan har doim ham mamlakat farovonligini saqlash maqsadida foydalanilmagan. Ammo Fitratning jadidchilik vakili sifatida Amir Said Olimxonga muxolifatda bo'lganligini ham e'tibordan qochirish kerak.

Ba'zi manbalarda amirlikning xazinasini xususida qiziqarli ma'lumotlar uchraydi. Masalan: 1991-yil chop qilingan "Fan va turmush" jurnalining 10-sonida keltirilishicha "... Hozir Buxoro amirining tasarrufi ostida bo'lgan xazinaning aqchasi (oltin va kumush) shu darajada mo'lkli, hech bir davlat xazinasida bul darajada ehtiyot saqlangan oltin va kumush, pul va yombilar bo'lmasa kerak. Buxoro amirining sanoqlarida saqlanayotgan oltin va kumush pullar bo'yi 50 olchin (bir olchin 70 sm), eni 20 olchin va balandligi 8 olchin bo'lgan bir tog'dan iborat. Bu xazinadan tashqari 3 olchin

kattalikda yana bir yerto'la xazinasi bo'lib, u rus, Buxoro va boshqa bir qancha davlatlarning oltin pullari bilan to'ldirilgan"[4].

Bu maqolada berilgan ma'lumotlar Oyina jurnalda "Buxoro amirining xazinasi" nomi ostida 1914-yil 25-sondan bosilgan. Ammo bir savol tug'iladi. Hammadan, hattoki o'z yaqinlaridan ham sir tutilgan ma'lumotlar qanday qilib 1914-yilda jurnal maqolasi sifatida chop etildi. Ushbu maqoladagi ma'lumotlar xato yoki taxminiy miqdor bo'lishi mumkin.

Arkdagi xazinadan tashqari amirlikning beklklarida ham maxsus xazinalar bo'lganligi haqida ma'lumotlar bor. Masalan: "Chorjo'y beklkida amirning shaxsiy xazinasi bo'lgan. Unda 10 pud (1 pud 16 kg ga teng) oltin (160 kg) va ming puddan ortiqroq kumush tangalar saqlangan. Shu beklkida saqlanayotgan amir xazinasidagi boshqa qimmatbaho mollar ham 1 milliard so'mlikdan ko'proqdir"[5].

Yuqoridagi ma'lumotlardan ham ma'lumki amirlikda bir emas bir nechta xazina mavjud bo'lgan.

Xullas, Buxoro amirligining oltin xazirasi beqiyos darajada ko'p bo'lgan. Biroq, undan hech vaqt mamlakat va xalq manfaati yo'lida foydalanilmagan. Buni amir Muzaffar bilan uning ayonlari o'rtasida Rossiya bosqini arafasida mamlakat, xalq, din uchun xavf kuchaygan juda og'ir bir paytda bo'lib o'tgan tarixiy mulqot ham tasdiqlaydi. Saroy amaldorlari unga xazina hisobidan chet eldan armiya yollash va harbiy texnika sotib olish uchun katta miqdorda oltin ajratishni taklif etganlar. Bunga javoban amir avlodlaridan meros bo'lib kelayotgan saroy "siri" va "an'analari"ni, garchi bundan saltanat zarar ko'rsa-da, buzishga haqqi yo'qligini, padari buzrukvorining xazinasi hech qachon ochilmaganligini aytadi[1].

Yuqoridagi ma'lumotlardan ma'lum bo'lishicha, Buxoro amirlari xazinaga nafaqat mulk, balki, muqaddas merosdek munosabatda bo'lganlar. Buxoroning qolgan amirlari ham bu an'anaga sodiq qolishga intilishgan.

1917-yilda Olimxon qo'shbeqi Mirza Nasrullohni xazinani ro'yxatga olish uchun vazifalantirgan. Hisob-kitoblarga ko'ra Buxoro xazinasida:

- 1 148 380 dona Buxoro oltini
- 4 635 100 so'm Rossiya oltini
- 1 108 pud Gamburg oltini
- 2 844 pud Gamburg kumushi
- 1 835 pud Rossiya kumushi
- 62 834 780 dona Buxoro kumushi
- 731 pud Buxoro mis tangasi
- 16 pud kukun oltin
- 864 pud Rossiya kumushi mavjud bo'lgan. Shuningdek,

Olimxon va uning yaqinlariga tegishli qimmatbaho toshlar ham qayd etilgan bo'lib, ularning og'irligi 13 067 grammni tashkil etgan[6].

Bu ma'lumotlarga ham tayanib shuni aytish mumkinki, Buxoro amirligi xazinasi nihoyatda ulkan bo'lgan. Ammo uning asl qiymati va hisobini aniq aytish juda qiyin. Savol tug'iladi: Olimxon bu xazinadan qanchasini o'zi bilan olib ketgan? Ba'zi manbalarda u Buxoroni 25 ming kishilik karvon bilan tark etgani aytiladi[7].

Amir katta guruh bilan ketgani sababli ham xazinadan bir qismini olib chiqqan degan fikrlar mavjud. Ayrim taxminlarga ko'ra 100 aravaga yuklangan boylikning 25 aravasi ruslar qo'lga tushgan. Ammo vaziyatga obyektiv qarab ko'rsak, Amir Olimxon

rus ishg'oli sababli xazinani olib chiqishga ulgurmagan. Albatta amir xazinadan umuman oltin olmagan deyish bu xato. Sovet davrida keng tarqalgan fikr shuki, Olimxon Buxoroni katta boylik bilan tark etgan. Amirning nabiralari bilan qilingan suhbat shuni ko'rsatadiki, Said Olimxon Buxoroni tark etishda o'zi bilan oltin olib chiqqan. Bu oltinlardan Sharqiy Buxoro hududida sovetlarga qarshi kurashda foydalanilgan. Olimxon Afg'onistonda muhojirlik davrida hattoki xotinlaridan birining sirg'asi evaziga qurol olib Ibrohimbekka yuborganligi bizni tajjublantirdi. Demak Olimxon o'zi bilan kata miqdorda oltin olib ketolmagan. Muammo shuki olib ketilgan oltinning hisobi aniq emas. Xo'sh unda Buxoroning afsonaviy boyliklari qayerda? Buxoro bosib olingan kunning erta tonggida 13 ta yuk vagonli sostav Kogon temir yo'li bekatidan Peterburgga qarab yo'l oldi. Bu vagonlarda Buxoro arkidagi amir xazinasidan o'g'irlab olingan oltin va oltin buyumlar, tarixiy va badiiy ahamiyatga ega bo'lgan qimmatbaho ashyolar olib ketiladi[8].

Ma'lumki, kommunistik bosqin sababli jadidlar hukumati tuzildi, BXSР tashkil topdi. Frunze birdaniga xazinaning hammasini topolmadi. Ma'lum bo'lgan hujjat va voqealarga tayanib shuni aytish mumkin. Amirlik xazinasi 1920-yil sentabrning dastlabki ikki-uch kunidan to 1924-yilning dekabrighacha taxminan to'rt bosqichda olib ketilgan. Bular avval juda tezlikda bosqinchi armiyalarga xos ravishda talon-tarojlik bilan, keyinroq esa o'ta maxfiylik asosida, ammo rasmiy ravishda amalga oshirilgan.

Birinchi bosqich, o'sha mash'um "Buxoro inqilobi" – kommunistik bosqichning dastlabki kunlari – 2-3 sentabrda sodir bo'lgan. Bir ma'lumotda shu kuni olib ketilgan oltinlarning hajmi jami 13 vagon deb ko'rsatilsa, yana bir ma'lumotda u ikki echelon deb ko'rsatiladi. Odatda, o'sha paytdagi harbiy poyezdlarning har bir eshlonida eng kamida besh-oltita vagon bo'lgan.

Ikkinchi bosqichda esa, Amir Said Olimxon o'zi bilan birga olib ketgan xazina yo'lida qizil armiyaning E. Kujelo boshliq harbiy bo'linmasi tomonidan G'ijduvon tumanidagi Eshon ko'priklari degan joyda bo'lgan jangda undan tortib olinishi nazarda tutiladi. V.Genising kitobi va boshqa ma'lumotlarda ko'rsatilishicha, bu jangda 20 ta aravaga oltin qo'lga olingan. Bu ham albatta olib ketilgan[1].

**Xulosa.** Buxoro amirligining xazinasi masalasi nafaqat tarix, balki siyosiy va madaniy meros nuqtai nazaridan ham biz uchun alohida ahamiyat kasb etadi. Xazina amirlik davlatchiligining moliyaviy tayanchi bo'lib, uning shakllanishida soliqlar, bojxona tushumlari, yer-suv daromadlari hamda savdo aloqalari ham muhim rol o'ynagan. Xazina davlat boshqaruvi, harbiy tizim va diplomatik munosabatlarni ta'minlashda asosiy vosita vazifasini bajargan. 1920-yilda keyin Buxoro amirligining siyosiy inqirozi va sovet hokimiyatining o'rnatilishi jarayonida xazina taqdiri keskin burilish yasadi. Oltin va qimmatbaho buyumlarning musodara qilinishi, ularning bir qismi markazga olib ketilishi yoki turli yo'llar bilan izzis yo'qolib ketishi tarixiy manbalarda turlicha talqin etiladi. Bu holat nafaqat tarixiy yo'qotish, balki milliy merosning parchalanishi sifatida ham baholanishi mumkin. Umuman olganda, Buxoro amirligi xazinasi davlat mustaqilligi, siyosiy barqarorlik va iqtisodiy qudratning muhim ko'rsatkichi bo'lgan. Uning taqdiri esa o'sha davr tarixiy jarayonlarining murakkabligi va keskin o'zgarishlarini yaqqol aks ettiradi.

#### ADABIYOTLAR

1. Сотимжон Холбоев . Бухоро амирлигининг олтін хазинаси. – Тошкент: Фан, 2008.
2. Akbar Zamonov, Alisher Egamberdiyev. O'zbekiston tarixi. IV qism. – Toshkent: Bayoz, 2022.
3. Fitrat. Amir Olimxonning hukumronlik davri. – Toshkent: Minhoj, 1992.
4. Yo'ldoshev H, Haydarov I. Amir Olimxon xazinasi qayerda? // "Fan va turmush" jurnali. 1991. - №3.
5. "Ishtrokiyun" ro'znomasi. 1920. – №193.
6. Nurettin Hatunoğlu. Buhara Hanhiği'nin Son Emiri Alim Han'in Vasiyeti ve Hazinesi // "Tarih" Türk Dünyası Araştırmaları. 2008. - №254.
7. Ражабов Қ. Бухорога қизил армия босқини ва унга қарши қуролли қураш: тарих ҳақиқати (1920–1924 й.). – Тошкент: Маънавият, 2002.
8. Fayziyev D. "Bormisan, erkinlik?!" // Guliston, 1991. - №4.